



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 15 mart, № 55 (8678)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



BU YIL IQTISODIYOTIMIZDA HAYOTIY UYG'ONISH VA YUKSALISH YILI BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-mart kuni Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga tashrif buyurib, aholining yashash sharoitlari bilan tanishdi.



Safar asnosida davlatimiz rahbari O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqazarov bilan samimiy suhbatlashdi. Muloqotda diniy-ma'rifiy yo'nalishlardagi ishlar, muborak Ramazon oyining fazilatlarini haqida so'z bordi. Ma'lumki, 11-mart kuni butun islom ummati qatori yurtimiz musulmonlari ham bu qutlug' o'yni xursandchilik bilan kutib oldilar. Ro'zadorlar mamlakatimizdagi tinchlik va farovonlik sharoifatidan ibodatlarini amin-erkin ado etmoqda, buning uchun Alloh taolaga cheksiz shukronalar aytmoqda. Masjidlarda Qur'oni karim xatm etilib, xalqimizga osoyishtalik, fayzu baraka tilab duolar qilinmoqda.

Muftiy bu ulug' ayyomda sabr-qanoat, xayru saxovat fazilatlarini ziyoda bo'lishini, yurtdoshlarimiz buni his qilib, savob amallarni ko'p qilayotganini aytdi.

Prezidentimiz bu o'yni yuksak darajada o'tkazish, yurtimizdagi tinchlikni qadrlash va mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi. Inson qadrini ulug'lash maqsadiga muvofiq, xalqimiz manfaatlarini ta'minlash, muhtoj insonlarni

qo'llab-quvvatlash davom ettirilishini aytdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali qishloq aholisi turmushini yuksaltirish muhimligi ta'kidlandi. Yoshlarni bilim-ma'rifati va vatanparvar etib tarbiyalash, ularni o'qishga, mehnatsevarlikka undashning ahamiyati haqida suhbatlashildi.

Dastlab tumandagi Ittifoq mahallasida tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar rahbarlari, 208 ta tuman va shahar hokimlari, ularning o'rinbosarlari, banklar va mahallalar vakillari qatnashdi. Davlatimiz rahbari odamlar yaxshi yashashga intilayotgani, ularga mablag' va ko'mak berib, daromad manbai yaratish zarurligini ta'kidladi.

— Tadbirkorlik, bandlik, kambag'allikdan chiqarishga katta mablag'lar ajratilaymiz. "Mahalladagi yettilik"ni nima uchun tashkil

qildik, kambag'allikdan chiqarish tizimini nimaga xonadongacha olib bordik? Maqsadimiz — tomorqani ishlatib, xonadonda ishlab chiqarish qilib, ko'chada xizmatlarni ko'paytirib, har sotixdan 1-2 million so'm daromad topishga o'rgatish, — dedi davlatimiz rahbari.

Lekin Sayxunobodda natijalar bunday emas. Qishloq xo'jaligi, qurilish va investitsiyaning tumandagi tizimi yetarlicha ishlamayapti, tadbirkorlik o'smayapti.

Shu bois Sirdaryo viloyati hokimining birinchi o'rinbosari, Sayxunobod tumani hokimi va boshqa bir qator rahbarlar vazifasidan ozod qilindi.

Yig'ilishda Sayxunobod tumani misolida hududlardagi muammolar va foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

Xususan, davlat tomonidan banklarga katta resurs ajratilyapti. O'tgan yili mahalladagi tadbirkorlik uchun Sayxunobodga 120 milliard so'm berilgan. Tuman tadbirkorlari soliqdan 85 milliard so'mlik imtiyoz olgan.

Lekin buning samarasi shunga yarasha

emas. Xususiy sektorda yaratilgan rasmiy ish o'rni bor-yo'g'i 968 taga ko'paygan. 2023-yilda tumanda 167 ta yangi tadbirkor paydo bo'lgan bo'lsa, shuning yarmi hali ish boshlamagan.

Banklar faqat qaytimni o'ylab, oson yo'l bilan resurslarni doimiy mijoziga beryapti. "Men ham tadbirkor bo'lay, mahallada ish o'rni yaratay", degan oddiy odamlar chetda qolib ketyapti. Kambag'allikni yo'qotish uchun ularga tayyor loyiha berilmayapti.

O'tgan yili Sayxunobodda sanoat hajmi ham o'smagan. 19 ta mahalladan 16 tasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan birovta ishlab chiqarish yo'q. Tayyor infratuzilmasi bor 16 ta bino va inshoot sotilmay turibdi. Xomashyo tayyorlash, borini qayta ishlash, odamlarni mahsulot ishlab chiqarishga o'rgatish va kooperatsiya qilish bo'yicha tashabbuslar yo'q.

Tumanning eng katta zaxirasi ham, imkoniyati ham — yer. Sayxunobod aholi tomorqasi 20 sotixdan ortiq bo'lgan 26 ta tumandan biri. Tomorqalarda asosiy ekin beda bilan makka bo'lib qolgan. Sarxil

meva-sabzavotlar yetishtirib, daromad olish, eksport qilish yo'lga qo'yilmagan.

Sayxunobodning 19 kilometr hududidan Sirdaryo oqib o'tgani uchun "suv tekni" degan tushuncha o'rnatib qolgan. Atigi 22 foiz yerlarda suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan. Sholichilik fermer xo'jaliklari yerlari lazerli tekislanmagan. Kanallarni betonlash rejasini to'liq bajarilmagani oqibatida 9 ta mahalladagi 5 ming gektar yerga suv kam boryapti.

Yig'ilishda bu muammolarni hal etish va ishsizlikni kamaytirish choralari muhokama qilindi.

Avvalo, Sayxunoboddagi 17 mingta xonadondagi tomorqani ishga solish, kichik sanoat va xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali aholini daromadli qilish vazifasi qo'yildi. Buning uchun banklar hokim yordamchilari bilan birga 19 ta mahalla va 794 ta ko'chani nomma-nom bo'lib olib, drayver yo'nalishlardan kelib chiqib, har biriga texnik iqtisodiy asos ishlab chiqadi.

Sayxunobodda ilk bor yangi tajriba qilinib, 19 ta mahallaning har biriga bittadan minitraktor, 4 tadan motokultivator

olib berildi. Endilikda hokim yordamchilari "1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so'm daromad" degan mezon asosida aholi uchun biznes reja ishlab chiqadi. Mahalladagi agronomlar bilan birga, tomorqa yerlarini haydash va ekin ekish xizmatlarini ko'rsatadi. Bu tajriba butun respublikada ommalashtiriladi.

Tomorqada yetishtirilgan mahsulotni sotib olish tizimini yo'lga qo'yish ham muhim masala. Shu maqsadda tumanda eksportga ko'maklashuvchi korxona ochilib, ustaviga 1 milliard so'm kiritiladi. Bu korxona 4 ming xonadonga serhosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokkoli, timyan urug'larini yetkazadi, yetishtirilgan mahsulotni sotib olib, eksport qiladi.

Bundan tashqari, mahallada sotib olishni yo'lga qo'ygan eksportchi, ilg'or tadbirkorlarga 300 million so'mdan 1 milliard so'mgacha grant beriladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbot xizmati suratlari.

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT FORMULASI

Katta narsa uzoqdan yaxshiroq ko'rinadi, deyishadi. Har kuni ro'y beradigan katta-kichik voqealar rivojida biz ularning kelgusi taraqqiyotdagi ahamiyatiga to'liq baho berish uchun yetarli vaqtimiz ham bo'lmaydi. Bu holat esa bir necha yillar davomida terilib, keyin umumiy ko'rinishga ega bo'ladigan mozaikaga o'xshaydi. Faqat muayyan bir vaqt o'tgach, bugun bizga oddiy bo'lib ko'ringan ana shunday voqealarning ahamiyatini balki biz emas, avlodlarimiz tushunib yetishar.

Nigoh

Shunday bir keng tarqalgan ibora bor: o'zgarishlar davrida yashashdan Xudo asrasin, deyдилar. Bu iboraning qanday kelib chiqqanini ham tushunish mumkin. Ya'ni ko'pchilik odamlar ich-ichidan odatiy hayotdagi keskin o'zgarishlardan cho'chib turishadi. Ulardan qandaydir noaniq xavf-xatar yoki muammolarni kutishadi. Balki bu odatdagi qo'rquvdir? Masalan, yangicha sharoitlarga tezda ko'nika olmaslik, yo bo'lmasa, yangi va ko'pincha balandroq bo'ladigan talablarga javob bera olmaslikdan qo'rqishdir? Balki "Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi"dir?!

Boshqa tomondan esa yangilikka, taraqqiyotga intilishning yo'qligi turg'unlikka olib keladi. Axir, yoningdagilar oldinga qarab siljisa-yu, sen istiqbolni o'ylamay, avvalgi holatingda qolib ketsang... yaxshimi shu? Bu alohida bir kishi yoki bir necha yuz va hatto bir necha ming kishi uchun ham unchalik fojiali voqea emasdir. Lekin butun bir mamlakat miqyosiga ko'chsa, buning oqibati ancha ayanchli bo'ladi. U tezda boshqalardan ortda qolib ketadi, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratib bera olmay qoladi.

Muloqot

Qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi

BMT Ayollar holati bo'yicha komissiyasining 68-sessiyasida ishtirok etish uchun Nyu-York shahrida bo'lib turgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Birlashgan Arab Amirliklari Gender tenglik kengashi vitse-prezidenti Mona G'anem Ol Marriy bilan uchrashdi.

Ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekiston va BAA o'rtasida ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimizning bu davlatga rasmiy tashrifi

ikki mamlakatning do'stlik hamda sheriklik munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi va keng qamrovli hamkorlikni kengaytirishga kuchli turtki berdi.

Muloqot chog'ida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, xalqaro reytinglar, davlat boshqaruvi, xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

SAYLOV TIZIMI — YOSHLAR NIGOHIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan "Yangi saylov tizimi — yoshlar nigohida" mavzuida seminar o'tkazildi.

Deputatlar, quyi palataning Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi va Yoshlar parlamenti a'zolari, siyosiy partiyalar mas'ullari qatnashgan tadbirda keyingi yillarda mamlakatimiz saylov qonunchiligiga kiritilgan muhim o'zgartishlar hamda saylovlarni yuqori saviyada o'tkazishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, milliy saylov qonunchiligimiz umume'tirof etilgan saylov prinsip va normalarga to'la mos holda huquqiy jihatdan yanada rivojlantirildi, saylovchilarning va saylov jarayoni ishtirokchilarining

huquqiy kafolatlari kuchaytirildi hamda saylov va referendum o'tkazishning ochiq, shaffofligining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 18-dekabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun parlament hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirishga qaratilgan bilan ahamiyatli bo'ladi.

TARAQQIYOT FORMULASI

solish va uni rivojlantirish uchun katta miqdorda mablagʻ talab etiladi. Shu sababli mamlakat rahbariyati “yashil” loyihalarni amalga oshirish yoʻlida yirik xorijiy investorlarni jalb etishga alohida eʼtibor qaratdi. Buning uchun zarur qonunchilik bazasi deyarli yangidan yaratildi, xorijiy sarmoyadorlarni qiziqtirish uchun maʼlum imtiyoz va preferensiyalar berildi.

Nima boʻlganda ham maqsad xarajatlarni oqlashi aniq. Navoiy va Samarqand viloyatlarida qurilgan, har birining quvvati 100 MVtli fotoelektr stansiyalarida oʻtgan yili 580 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu miqdor 240,4 ming uy xoʻjaligining yillik isteʼmolini qoplashga yetadi.

Quvvati 500 MVtga teng shamol elektr stansiyasining parraklari Navoiy viloyatining Tomdi tumanini qiyofasini oʻzgartirib yubordi. Inshootning 100 megavattli birinchi navbati oʻtgan yilning oxirida ishga tushirilgan boʻlib, qisqa vaqt mobaynida 155 ming xoʻjalik ehtiyojini qondirishga qodir boʻlgan deyarli 31,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shamol elektr stansiyasining 200 MVt quvvatga teng keyingi navbati joriy yil yakuni bilan foydalanishga topshiriladi. 2025-yilda esa ShES toʻliq quvvat bilan ishlay boshlaydi.

Tomdi tumanidagi inshootga balandligi 97 metrli shamol turbinalari, uzunligi 77 metrga teng parraklar oʻrnatilayotgan boʻlsa, Buxoro viloyatining Peshku va Gʻijduvon tumanlarida barpo etilayotgan ikkita — har biri 500 megavattli shamol elektr stansiyalariga balandligi 100 metrdan ziyod turbinalar, 84 metrli parraklar oʻrnatilmoqda.

Inshootning shamol hisobiga 400 MVt elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi birinchi quvvati joriy yil yakunida ishga tushirilishi moʻljallangan. ShES toʻliq quvvatga kirganda esa yiliga 3,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi yetkazib beradi. Aytish joizki, ushbu hajm hisobiga 1,1 milliard kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi hamda atmosfera 1,5 million tonna chiqindilar bilan zaharlanishining oldi olinadi.

Keltirib oʻtilgan raqamlar Oʻzbekistonning “yashil” energetika sohasidagi ulkan va istiqbolli dasturining ilk debochasi, xolos. Mazkur loyiha xalqaro hamjamiyatning ham eʼtiborini tortdi. Masalan, koʻplab mamlakatlarning ommaviy axborot vositalarida joriy yil boʻsagʻasida Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi beshta fotoelektr stansiyasi hamda Navoiy viloyatidagi quvvati 2 400 megavattga teng shamol elektr stansiyasini umumiy tarmoqqa ulash tantanali marosimi keng yoritildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev oʻz soʻzida mamlakat aholisi va iqtisodiyotini elektr energiyasi bilan barqaror taʼminlash, iqlim oʻzgarishi salbiy oqibatlarni yumshatish, respublikaning quyosh va shamol energiyasi borasidagi ulkan salohiyatidan unumli foydalanish, “yashil” energiya hisobidan eksportbop mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda quyosh va shamol elektr stansiyalari uchun uskunalar hamda butlash qismlarini ishlab chiqarish,

atmosfera 34 million tonna zararli moddalar bilan ifloslanishining oldini olishga zamin yaratadi.

— Oʻzbekiston bosqichma-bosqich sirkulyar iqtisodiyotga oʻtishni amalga oshirmoqda. Uning asosiy afzalliklari shundaki, sirkulyar iqtisodiyotda, avvalo, resurslar tejalandi, chiqindilar salmogʻi kamayadi, uglevdorod bilan bogʻliqlik qisqaradi, aholi farovonligi ortadi, — deb yozadi Ispaniyaning “El Mundo Financiero” nashri muxbiri. — Shu va boshqa saʼy-harakatlar Oʻzbekistonni “yashil” oʻsish borasida Markaziy Osiyoning yetakchisiga aylantiradi hamda butun mintaqani “yashil” kelajakka tomon yetaklaydi.

Erishilgan natijalar Oʻzbekiston jahonning asosiy trendlaridan ortda qolmaslikka intilayotganini, zamon talabiga mos ravishda harakatlanayotganini isbotlaydi.

Iqtisodiyot oʻsib bormoqda, farovonlik ortmoqda

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar natijasi oʻlaroq nisbatan qisqa davrda butun respublika miqyosida ulkan oʻzgarishlar roʻy berdi. Yaqin-yaqingga qadar, taʼbir joiz boʻlsa, hayot poytaxt atrofida aylanar edi, hududlarga esa qoldiq tamoyili asosida eʼtibor berilardi. Bugun vaziyat tubdan oʻzgardi. Albatta, joylarda hayot darajasi markazga nisbatan farqlansa-da, infratuzilma sohasidagi shiddatli oʻsish dinamikasidagi zamonaviy sanoat korxonalarini qurish, uy-joy hamda ijtimoiy obyektlarni barpo qilish borasidagi oʻzgarishlar yaqqol sezilmoqda.

Shahar va tumanlardagi holatdan koʻproq xabardor boʻlgan mahalliy hokimiyatga hududlarni rivojlantirish istiqbollari belgilashda keng imkoniyatlar taqdim etilgan. Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan maqsadlarga erishishda, dastur va loyihalarni amalga oshirishda ularni moliyalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Moliyalashtirish masalasi esa hududlarda olinayotgan daromadlar miqdori bilan uzviy bogʻliq.

Aynan shu bois mazkur jihatga Taraqqiyot strategiyasida alohida eʼtibor qaratilgan. Yaʼni hududiy iqtisodiyot hajmini 1,4-1,6 karra oshirish, iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirishni taʼminlash, sanoat va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish kabi aniq vazifalar qoʻyilgan. Respublika tumanlari va shaharlari kesimida ishlab chiqilgan va besh yilga moʻljallangan hududiy dasturlar shunga yoʻnaltirilgan.

Mazkur dasturlarni amalga oshirish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy eʼtiborida boʻlmoqda. Hududlarga tashriflari davomida Prezidentimiz islohotlar natijalari bilan tanishish asnosida oddiy odamlarning turmush tarzidagi yangilanishlar xususidagi fikr-mulohazalariga ham quloq tutadi.

Har bir tashrif iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlar natijalari aholi farovonligiga koʻrsatayotgan ijobiy taʼsirini ham namoyon etadi.

sohalarda oʻndan ortiq loyihalar amalga oshirilgan. Joriy yilda mazkur industrial hududda 150 million dollardan ziyod oʻndan ortiq loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Natijada viloyatning sanoat salohiyati, xaridorigir mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi, yana ikki mingta ish oʻrni yaratiladi.

Davlatimiz rahbarining tavsiya va koʻrsatmalari asosida hudud iqtisodiyotini yanada ravnaq toptirish uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish moʻljallanmoqda. Birgina Xitoy investorlari bilan 3 milliard dollarlik shartnomalar tuzilgan. Joriy yilda esa yana bir milliard dollar miqdoridagi investitsiyalar jalb etish mumkin. Shu maqsadda Andijon tumani hududidagi 218 gektar maydonda “Ipak yoʻli” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilib, xorijiy investorlarga soliqliq va bojxona imtiyozlari taqdim qilinadi. Istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun esa zarur infratuzilma yaratiladi.

Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda viloyatda qiymati 1,7 milliard dollarga teng boʻlgan 26 loyiha bajarilmoqda. Ushbu loyihalar energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, tekstil, qurilish mahsulotlari, farmatsevtika, qishloq xoʻjaligi, taʼlim va



infratuzilma kabi soha hamda tarmoqlarni qamrab olgan. Ular doirasida kichik gidroelektrostansiyalar, uy-joylar va dam olish maskanlarini qurish, elektrobuslar va akkumulyatorlar, keramik marmar, beton panellar, dori vositalari ishlab chiqarish, gilos va boshqa mevalar yetishtirish rejalashtirilgan. Yangi quvvatlar esa yangi ish oʻrinlari demakdir. Aholisi zich boʻlgan Andijon viloyati uchun bu dolzarb ahamiyatga ega. Oʻzbekiston Prezidenti bilan boʻlgan suhbatda xitoylik investorlar mamlakatimizda biznes yuritishga katta qiziqish bildirib, buning uchun respublikada va mazkur hududda qulay imkoniyatlar yaratilganini eʼtirof etdi.

Fevral oxiri — mart boshida Xorazm viloyatiga tashrif davomida ham davlatimiz rahbari hududlarni rivojlantirish borasidagi aniq natijalar bilan tanishdi.

hisobiga erishildi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali amalga oshirilayotgan koʻplab loyihalarni tilga olish mumkin. Jumladan, “Xiva klaster” MCHJ bunga yaqqol misol boʻla oladi. Jamiyat rahbariyati davlatimiz yetakchisi tashabbusi bilan taqdim etilgan imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalana olgan. Oʻtgan yilda klaster salkam 20 ming tonna paxta yetishtirdi. Eʼtiborlisi, 1 545 gektar maydonda tomchilatib sugʻorish usuli qoʻllanildi. Natijada sugʻorish jarayonida qimmatli suv resurslari sezilarli darajada tejaldi.

Prezident klasterdagi yakuniy jarayon — tekstil korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda zamonaviy uskunalar asosida yiliga 7 ming tonna kalava ip, 4 ming tonna trikotaj matosi, 10 million tonna tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi. Barcha mahsulot xalqaro standartlarga javob beradi hamda toʻlaligicha eksport qilinadi. Korxonaning umumiy eksport salohiyati yiliga deyarli 15 million dollarga teng.

2018 — 2023-yillar davomida klaster tomonidan 105 million dollar qiymatga ega loyihalar amalga oshirilib, yiliga 50 million dollarga teng eksport imkoniyatlari yaratildi. Eʼtiborlisi, paxtani yetishtirish va chuqur



qayta ishlash bilangina cheklanib qolmay, hamkorlik asosida paxta yogʻi, sovun, tuxum, sut mahsulotlari va hatto poyabzal ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan.

Klaster tom maʼnoda agro ishlab chiqarish markaziga aylangan. Prezident klasterning iqtisodidagi rejalari bilan tanishdi. Rejalar esa bisyor. Birinchi navbatda, bu paxta yetishtirish va uni chuqur qayta ishlash asnosida qoʻshimcha qiymat yaratish koʻlamini yanada kengaytirish bilan bogʻliq. Qolaversa, boshqa turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash loyihalari ustida dastlabki ish olib borilmoqda. Shuningdek, isteʼmolbop mahsulotlar yetkazib berish, kichik yuk tashish avtomobillarini ishlab chiqarish loyihalari tuzilmoqda. Ahamiyatlisi, aytib oʻtilgan loyihalar evaziga ish oʻrinlari hozirgi 10 mingtadan 30 mingtaga yetkaziladi. Demak, kelajakda yana 20 ming xorazmlikning oilasiga baraka kiradi.

Bu kabi ijobiy oʻzgarishlardan darak beruvchi misollarni barcha hududda koʻrish mumkin. Joylardagi uchrashuvlar davomida Prezidentimiz shuni ham taʼkidlaydiki, iqtisodiy oʻsish uchun ishga solinmagan imkoniyatlar hali juda koʻp. Shuning uchun davlatimiz rahbari barcha 208 ta tuman va shaharning “oʻsish nuqtalari”ni aniqlash, iqtisodiy rivojlantirish hisobiga aholi daromadlarini koʻpaytirishga qaratilgan loyihalarni tayyorlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Hindistonda chop etiladigan nufuzli “The Economic Times” nashrining eʼtirof etishicha, hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatini chuqur tahlil qilish asosida ularni yaxlit va parallel ravishda rivojlantirish Oʻzbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim tamoyili boʻlib xizmat qiladi.

— Jahon miqyosida kuzatilayotgan iqtisodiy girdoblar davrida Oʻzbekiston barqaror iqtisodiy oʻsishga erishib kelayotgan davlatdir. U asta-sekinlik bilan Markaziy Osiyoning investitsiyaviy xabiga aylanmoqda, — deya xabar beradi nashr. — Mamlakatda amalga oshirilgan izchil islohotlar, biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, jumladan, imtiyoz va preferensiyalar, investor huquqlarining kafolatlangani mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar qiziqishini oshirmoqda.

Yuqorida aytib oʻtilgan barcha hayotiy misollar — ulkan bunyodkorlik ishlari, ishlab chiqarishda asrlarga tatigulik megaloyihalar, aholi turmush sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bir qarashda turlicha manzara hosil qilayotganday koʻrinadi. Ammo ularni birlashtiruvchi umumiy mahraj borki, bu ham boʻlsa, xalqimiz azaldan orzu qilgan osuda va farovon hayotga erishishda dadil qadamlar tashlanayotgani, yangi Oʻzbekiston orzusi real haqiqatga aylanayotgani, mamlakatimiz dunyoda oʻz oʻrni, oʻz ovozigacha ega boʻlib borayotganida yaqqol aks etadi.

Oʻtkir RAHMAT.

Qoʻshma loyihalarni amalga oshirish guzasidan fikr almashildi



Suhbat davomida munosabatlarning amaliy jihatlarini, xususan, “Women in Politics” (Siyosatdagi ayollar) dasturini maxsus seminar va loyihalar orqali birgalikda amalga oshirish imkoniyatlarini koʻrib chiqish taklif etildi. Bu borada BAA parlamentidagi ayol deputatlar soni hozirda 50 foizni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, Amirlikning 60 ga yaqin

yirik kompaniyalari ayollarni 30 foiz ish oʻrinlari bilan taʼminlash boʻyicha ixtiyoriy majburiyatlarni olgan.

Suhbat yakunida tomonlar koʻp qirrali hamkorlikni, shu jumladan, gender tenglikni taʼminlash sohasida rivojlantirish boʻyicha yakdill fikr bildirildi.

Senat Raisi Mona Gʻanem Ol Marriyni Samarqand shahrida boʻlib oʻtadigan Osiyo xotin-qizlar forumida ishtirok etishga taklif qildi.

Xotin-qizlar tashkilotlari oʻrtasida aloqalarni yoʻlga qoʻyish zarurati

Nyu-York shahrida amaliy tashrif bilan boʻlib turgan Oʻzbekiston Oliy Majlisi Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva Eron Islom Respublikasining Xotin-qizlar va oila masalalari boʻyicha vitse-prezidenti Ensiyo Xazaliy bilan uchrashdi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston va Eron Islom Respublikasi oʻrtasidagi aloqalar, ayniqsa, savdo-iqtisodiy va siyosiy muloqotlar izchil rivojlanib bormoqda.

Uchrashuv davomida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro tuzilmalar doirasida sheriklikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Oliy darajadagi, shuningdek, ikki davlat hukumatlari va parlamentlari oʻrtasidagi faol oʻzaro aloqalar mamlakatlarimiz ayollari oʻrtasidagi hamkorlik uchun muhim platforma yaratayotgani alohida qayd etildi. Ikki tomonlama hamkorlik doirasida

xotin-qizlar tashkilotlari oʻrtasida aloqalarni yoʻlga qoʻyish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-maʼrifiy hayotdagi ishtirokini oshirish, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiini mustahkamlash borasidagi saʼy-harakatlarni qoʻshma loyihalar asosida birlashtirish istiqbollari koʻrib chiqildi.

Xususan, ilmiy muassasalar oʻrtasida oila va xotin-qizlar muammolarini oʻrganish boʻyicha hamkorlik qilish hamda Oʻzbekiston va Eronning yetakchi oliy taʼlim muassasalarida talaba qizlar uchun almashinuv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga kelishib olindi.

“BMT-Ayollar” tuzilmasi direktori bilan muzokara oʻtkazildi

Oliy Majlis Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva Nyu-York shahrida “BMT-Ayollar” tuzilmasi direktori Sima Sami Baxus bilan uchrashdi.

Unda Oʻzbekiston va “BMT-Ayollar” tuzilmasi oʻrtasida aloqalarni mustahkamlash, xususan, ushbu tashkilotning mamlakatimizdagi faoliyatini yanada faollashtirish, gender tenglikni taʼminlash sohasidagi istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Keyingi yillarda gender tenglikka erishish, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini taʼminlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish borasida Oʻzbekistonda tizimli ishlar amalga oshirilayotgani, bunda BMTning tavsiyalari muhim oʻrin tutayotgani alohida taʼkidlab oʻtiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi “BMT-Ayollar” tuzilmasining butun dunyoda gender tenglikka erishish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha 2022 — 2025-yillarga moʻljallangan strategik rejasiga hamohangligiga alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻz navbatida, Sima Sami Baxus “BMT-Ayollar” tashkiloti Oʻzbekistonda

mintaqadagi asosiy hamkor deb bilishini, mamlakatdagi keng koʻlamli oʻzgarishlar hamda BRMni amalga oshirishda faol hamkorlik qilishga tayyor ekanini qayd etdi. Tinchlik va xavfsizlikni taʼminlashda xotin-qizlar ishtiroki masalalarida Toshkentning muhim roli eʼtiborga olinib, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti doirasida Oʻzbekiston bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdorlik ekanligi bildirildi.

— Oʻzbekiston gender tenglikni taʼminlashda erishgan sezilarli yutuqlarni hisobga olib, mamlakatimizni mintaqa davlatlari orasida gender masalalarini ishlab chiqishda muhim oʻrin tutishi mumkin boʻlgan koʻpriki sifatida koʻramiz, — deya taʼkidladi Sima Sami Baxus.

Suhbat yakunida Oʻzbekiston va “BMT-Ayollar” tuzilmasi bilan amaliy loyihalarni tatbiq etgan holda hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

Oʻrganish

JOYLARDA YERLARDAN OQILONA FOYDALANILYAPTIMI?

Avvalroq xabar berilganidek, hududlarda yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash boʻyicha olib borilayotgan ishlar holati Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi aʼzolari tomonidan tahlil qilib kelinmoqda. Xususan, qoʻmita raisi oʻrinbosari Risqul Siddiqov boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Jizzax viloyatidagi ayni holat chuqur oʻrganilayotir.

Ishchi guruh tomonidan yer uchastkalarini ochiq elektron tanlovga chiqarish, tanlovni tashkil etish, tanlov gʻolibini aniqlash va ularning yer uchastkasiga boʻlgan ijara huquqini davlat roʻyxatidan oʻtkazish tizimi joriy holati tahlil qilinaypti.

Bundan tashqari, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar va ajratilgan yer maydonlari holati, ularning aholi punktlariga yaqinligi va suv taʼminoti, shuningdek, auksionda gʻolib boʻlgan fuqarolarning ish bilan bandligi, oiladagi ishsizlar soni va ajratilgan maydonlarda ekin ekish va mahsulot yetishtirish tizimi joriy qilinganligi holati eʼtibor markazida turibdi.

Mahsulotlarni yetishtirish uchun kooperatsiyalar tashkil qilish, zarur urugʻlik, mineral oʻgʻit, kimyoviy vosita va yonilgʻi-moylash mahsulotlarini yetkazib berish qanday yoʻlga qoʻyilgani, “yoshlar daftari”, “ayollar daftari”, “temir daftar”ga kiritilgan

“Xalq soʻzi”.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlari.

ularni taʼmirlash va qurishga yoʻnaltirilgan boshqa sohalarni rivojlantirishda “yashil” generatsiyaning ahamiyatini eʼtirof etdi. Joriy yilda investorlar hamda Saudiya Arabistoni, BAA, Xitoy, Fransiyaning jahonga mashhur kompaniyalari bilan hamkorlikda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiyani saqlash tizimlarini barpo etish boʻyicha oʻnta loyiha ustida ish olib borilmoqda. 2024-yilning oʻzida FES quvvatini 2,6 gigavattga, ShES quvvatini esa 900 megavattga yetkazish, 400 megavatt energiya saqlash imkonini beruvchi inshootlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Umuman aytadigan boʻlsak, 2030-yilga qadar “yashil” elektrostansiyalar quvvatini 27 gigavattga olib chiqish moʻljallangan. Bu esa, oʻz navbatida, elektr energiyasi ishlab chiqarishni oshirish barobarida, yiliga 25 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va

Misol uchun olib qaraydigan boʻlsak, Andijon viloyati milliy avtomobilsozlikning beshigini hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda avtomobil ishlab chiqarish sohasiga taalluqli 12 ta yirik va 160 dan ziyod oʻrta va kichik korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda. Ularda yaxshigina daromad topayotgan 17 ming ishchi va mutaxassis mehnat qiladi. Kooperatsiya asosida ehtiyot qismlar yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan loyihalar kengayishi barobarida, band boʻlganlarning salmogʻi ortib boraveradi.

Keyingi yillarda mamlakatda industrial hududlar tashkil etish va rivojlantirishga katta eʼtibor berilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev shu yilning fevral oyida Andijon viloyatiga qilgan tashrifi davomida Andijon tumanida tashkil etilgan “Andijon sanoat xabi” korxonasini koʻzdan kechirdi. Bu yerda 195 gektar maydonda mashinasozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari kabi

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida



SAYLOV TIZIMI –
YOSHLAR NIGOHIDA

➡ Mazkur Konstitutsiyaviy Qonunga ko'ra, bundan buyon Qonunchilik palatasi saylovi aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Unda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (partiyalar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi nazarda tutildi. Shuningdek, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qirq foiziga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Shu bilan bir qatorda, saylov komissiyalarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgarishlar joriy etildi. Jumladan, Markaziy saylov komissiyasi to'qqiz nafar a'zodan iborat tarkibda saylanishi, Markaziy saylov komissiyasining Raisi besh yillik muddatga saylanishi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emasligi qat'iy belgilandi. Qolaversa, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud olib tashlanmagan fuqarolarning viloyat, tuman, shahar, okrug va uchastka saylov komissiyasi a'zoliciga tayinlanishini taqiqlash nazarda tutildi.

Seminar ishtirokchilari saylov mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayon ekanini, unda aholi, ayniqsa, yoshlarning faol ishtiroki mamlakat kelajak taraqqiyotini belgilovchi yuksak mezon sanalishini qayd etdilar. Shu bois ham saylovga puxta tayyorgarlik ko'rish jarayonida yoshlarning milliy saylov qonunchiligi va xalqaro saylov standartlari bo'yicha bilim hamda amaliy ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadbirda birinchi bor saylovda ishtirok etadigan yoshlarga huquqiy tushuntirishlar berish, ushbu siyosiy jarayonda ko'ngillar bilan ishlashning huquqiy asoslari va zamonaviy uslublarni tashkil etish hamda saylovni samarali o'tkazish bilan bog'liq masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Seminar yakunida yoshlar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob qaytarildi.

Har bir mamlakat taraqqiyotida uning ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim alohida o'rin tutadi. Yurtimizda ham oliy ta'limni rivojlantirish, unga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, kadrlar raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Keyingi yillarda xorijiy universitetlar filiallari soni ortyapti, nodavlat oliy ta'lim muassasalari ochilyapti, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilayotir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan "Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlashning qonunchilik asoslari" mavzuida o'tkazilgan seminar da shu xususda so'z bordi.

Qayd etilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishi — uni ma'muriy boshqarishdan tortib to o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etishda akademik erkinlikka ega bo'lishini taqozo qiladi.

OTMning akademik mustaqilligini ta'minlash ta'lim sifatining o'sishi, ilmiy tadqiqot ishlarining

o'lish borasida kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Xususan, so'nggi 15 yil yomg'ingarchilik 25 foizga qisqargani, yozda o'ta issiq kunlar davomiyligi ortgani oldimizda hali katta sinovlar borligidan dalolatdir.

Shu bilan birga, ekin maydonlarining asosiy qismida hanuzgacha eskicha uslubdagi sug'orish tizimi tatbiq etilayotgani hamda suvni tejaydigan texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmagani natijasida asosiy manbalardan olinadigan suvning 35 — 40 foizi sug'orish tarmoqlarida sug'orilmoqda. Fermer xo'jaliklarining sug'orish tarmoqlari asosiy qismi tuproq o'zanli bo'lib, ularda suvning filtratsiya

hisobiga yo'qolish salmog'i yuqorilgicha qolyapti.

Davra suhbatida suvdan oqilona foydalanish yuzasidan qizg'in fikr-mulohazalar bildirildi. Shu asosda mutasaddi vazirlik va idoralarga suv havzalari va yer osti suv zaxiralari ni muhofaza qilish bo'yicha talablarni kuchaytirish, transchegaraviy suv resurslaridan mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olgan holda foydalanish, suvning hisobini ochiq-oshkora yuritish tizimini joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarini raqamlashtirish, nasos stansiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish hamda muqobil energiyaga o'tkazish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Yakunda deputatlar tomonidan sohaga oid qonunlarni takomillashtirish, ularning joylardagi ijrosini nazorat-tahlil faoliyati tartibida o'rganish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim olish shaklini hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash, doktoranturada to'lov-shartnoma asosida o'qish qiymatini belgilash, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish, doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash kabi bir qator vakolatlarga ega.

Tahillarga ko'ra, bunday vakolatlar "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda aks etmagan. Ishtirokchilar tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarining akademik oid qonunchilikni takomillashtirish quyi palataning Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan chuqur tahlil qilimoqda. Ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha va chuqur o'rganilib, ularga huquqiy yechim topish maqsadida qonunchilik hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasida asoslangan takliflar ko'rib chiqilyapti.

Akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari o'quv rejaları, o'quv dasturlari, rivojlanishi, ta'lim — fan — ishlab chiqarish integratsiyasi, xalqaro ilmiy tadqiqot aloqalarining kuchayishi, sog'lom raqobat muhiti yaratilishiga katta imkoniyat ochadi.

Seminar da ma'lum qilinishicha, ayni kunlarda davlat oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash masalasiga oid qonunchilikni takomillashtirish quyi palataning Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan chuqur tahlil qilimoqda. Ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha va chuqur o'rganilib, ularga huquqiy yechim topish maqsadida qonunchilik hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasida asoslangan takliflar ko'rib chiqilyapti.

Akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari o'quv rejaları, o'quv dasturlari, natijasida aholi xonadonlariga issiq suv ta'minoti belgilangan me'yorlarda yetkazib berilmayotgani deputatlarning jiddiy e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Munozaralar davomida zamonaviy energiya tejamkor isitish qozonlarini o'rnatish, issiqlik tarmoqlarini polimer izolyatsiyali quvurlarga almashtirish orqali issiqlikni saqlash xususiyatini 98 foizga yetkazish, ekspluatatsiya davrini 30 yilgacha uzatirish va avariya sodir bo'lgan hududlarni avtomatik ravishda aniqlashga erishish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, hududlarda aholi xonadonlarini toza ichimlik suvi va issiq suv bilan ta'minlashga oid ishlarning asl holatini muntazam o'rganib borish, sohada mavjud muammolarni hal etish choralarini ko'rish hamda ichimlik suvi va issiq suv ta'minoti tizimini bosqichma-bosqich yaxshilash borasida manzilli dasturlarni ishlab chiqish lozimligi qayd etildi.

Eshitutv yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Shuningdek, davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi 6 ta olis qishloqni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilgan. Natijada 3 727 ta xonadonda istiqomat qiluvchi 20 mingdan ziyod aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

Eshitutvda issiqlik ta'minoti tizimi "ochiq tizim"li bo'lgani tufayli ko'p qavatli uylarning yerto'la qismida issiq suvni to'kish (sliv) yoki oqova tarmog'iga oqizish holatlari kuzatilayotgani

insonlar yutadi, chunki ular har qanday sharoitga doim tayyor turadi.

Tabiatda hech narsa behikmat bo'lmas. Bugungi yog'ingarchiliklar ertamizning qut-barakasi, to'kinchilgimiz manbai. Yil davomida suv mo'l-ko'l bo'lsa, ekinzorlar qagrab-qaqshab qolmaydi. O't-o'laning zo'ridan chorva mollari ham huzur ko'radi. Axir ajdodlarimiz bilib aytishgan: "Yaxshi kelsa hut — kadi-kadi sut..."

Demoqchimizki, bu yilgi 21-fevraldan boshlangan hut oyi yaxshi kelganini ayni kunlardagi qoru yomg'irlar ham ko'rsatib turibdi.

Diilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

Yunus BO'RIYEV olgan suratlar.

"TASVIRIY OYINA":
FAOLIYAT
SARHISOBI

Mo'ynoq tumanida O'zbekiston Respublikasi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar tahlili va uyushmaning 2024-yilgi faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmali seminar bo'lib o'tdi.

Seminar

Tadbirda "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi Boshqaruv kengashi a'zolari, uyushmaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar hamda tuman va shahar bo'limlari rahbarlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ko'rgazmali seminar ishtirokchilari dastlab Mo'ynoq tumanida amalga oshirilgan bunyodkorliklar va tashqi targ'ibot vositalari orqali bezash ishlari bilan tanishdi. Hakim ota ziyoatgohi majmuasi, Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li maqbarasini ziyorat qilib, Mo'ynoq tumanidagi "kemalar qabristoni"ga tashrif buyurdi.

Shundan so'ng, Mo'ynoq tumanidagi Madaniyat saroyida seminar tashkil etildi. Unda uyushma o'tgan yilgi faoliyatida O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlar jarayonini keng ommaga ta'sirchan va jozibador shakllarda yetkazish, xalqning chinakam bunyodkorlik ishlarini, odamlar ongida, ruhiyatida, qiyofasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tasviriy namoyon etishda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgani alohida ta'kidlandi.

Tadbirda kelgusi vazifalar belgilab olindi. Joriy yilda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqib bajariladigan tadbirlar rejasi ma'qullandi.

Seminar doirasida joriy yilga bag'ishlab tayyorlangan "Yoshlar — yangi O'zbekiston va uchinchi Renessans bunyodkorlari" nomli tavsiyalar qo'llanmasi taqdimoti o'tkazildi.

Ushbu seminar bahona Mo'ynoq tumanida keyingi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lami bunyodkorlik ishlari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldik, — deydi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi Jizzax viloyati bo'limi rahbari Oybek Begimqulov. — Qoraqalpog'istonning eng chekka tumanida aholi uchun yaratilayotgan qulayliklar, zamonaviy shart-sharoitlar havas qilari darajada.

Tadbir yakunida "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasining bir guruh xodimlariga faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA



"O'ZBEKISTON
POCHTASI"
aksiyadorlik jamiyati

yangi tariflarni
amalga
kiritmoqda

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligining kelishuviga
asosan

2024-yil 1-apreldan boshlab universal
pochta xizmatlariga belgilangan
tariflar amalga kiritilmoqda.

20 grammacha bo'lgan pochta
jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi
hududida jo'natish uchun quyidagi tariflar
o'rnatilgan:

■ oddiy xat-xabar — 3 100 so'm;

■ oddiy banderol — 3 100 so'm;

■ oddiy mayda paket (100 grammacha) — 3 700 so'm.
Universal pochta xizmatlariga
belgilangan tariflarning to'liq ro'yxati
barcha pochta aloqasi korxona va
bo'limlarida hamda
www.uz.post
saytida mavjud.

**Pochta
xizmatlaridan
foydalaning!**

YAXSHI KELSA HUT...

Onajonim, tabiat



Ko'klamning ilk oyi ham yarimlab qolgan bo'lishiga qaramay, yurtimizning ko'pgina hududlarida "laylak qor" yog'ib o'tdi. Dala-dasht oppoq libos kiydi. Ob-havoning bunday injiqligi chorvadorlar, dehqonlar uchun ba'zi muamrolarni ham tug'dirayotgani tabiiy. Ayniqsa, ziroatchilik ortidan daromad topadigan insonlar zudlik bilan ekin-tikinni, mevali daraxtlarni sovuq urishidan asrash choralarini ko'rish kerak.

Aslida, xalqimiz — dono, sinchi xalq. Ob-havoning turqu avzoyini, turli jonzotlarning xatti-harakatini doim sinchkov kuzatadi, muayyan tahlillar asosida ertangi kunning ob-havosini, hatto yilning qanday kelishini taxmin qiladi. Masalan, qantar og'gach, ya'ni to'qqizinchi fevraldan quyoshning nurlarida taft seziladi. Iliq nasimdan,


tuproqda haroratning ko'tarilishidan boriqda ajib bir jonlanish, hayvonot va nabotot olamida uyg'onish ro'y bera boshlaydi. Bu qahraton qishning chekinib, ko'klamga yo'l bo'shatayotganini bildiradi. Shu bois "Qantar og'sa, qor turmas", deydi odamlar.

Biroq xalqimiz birinchi martdan ayamajuz kirishini ham yaxshi biladi. Havo harorati keskin sovib, aksar hollarda qor bo'ronlari avjga minishini chamalaydi, shunga yarasha tadorik ham ko'radi. Uyida olovni o'chirmaydi, dalasiga, tomorqasiga hozir bo'lib turadi. El bu ayozli, qirovli kunlarni alohida tavoze bilan "aziz momo" deya atashi ham shundan. U bilan hazillashib bo'lmaydi. Chunki aziz momo uch oylik butun qishga qarab aytadimishki, "To'qson, bir kunimcha yo'qsan!"

Bilguvchi bobo-momolarimiz yana ta'kidlaydi:

Aziz momo olti kun,
Qaltirasa — qatti kun.
Sakransa — sakkiz kun,
To'qransa — to'qqiz kun,
O'qransa — o'n kun...

Demak, shu kunlarda yurtimizda kuzatilayotgan sovuq harorat tasodifiy, favqulodda holat emas, balki bahorning dastlabki oyida aksar yillarda azaldan ro'y berib kelayotgan tabiat hodisasi. Bundan ba'zi kishilarning, jumladan, dehqonu chorvadorlarning hadik-xavotirga tushib, odatiy rejalaridan chekinishi, kundalik ish tartibini o'zgartirishi yaramaydi. Bunday vaziyatda xalqimizning qadimiy urf-odat va an'alarini, aytimlarini, qadriyatlarini yaxshi bilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarib yashaydigan, ishlaydigan



Bahorning tabiati qiziq. Quyosh charaqlab turgan onda birdan shamol turadiyu atrofini qora bulut ko'lankasi egallab oladi. So'ng yomg'ir yog'adi, u hatto qorga aylanadi. Xuddi shu kecha-kunduzdagidek...

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nuxsada bosildi. Hajmi — 2 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qoq'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev .
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.25 Topshirildi — 00.30 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi